

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi. № MD-70510101-2.004.  
2024 yil "16" 06

**ORNITOLOGIYA**  
**O'quv dasturi**

- Bilim sohasi:** 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
**Ta'lif sohasi:** 510 000 – Biologik va turdosh fanlar  
**Mutaxassislik:** 70510101 – Biologiya (Zoologiya, ixtiobiologiya va hidrobiologiya)

Fan/modul kodi MZIG3415	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 5
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2
1	Fanning nomi <b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	Mustaqil ta'lif (soat) 90	Jami yuklama (soat) 150
Ornitologiya	60		

## 2. I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – magistr talabalarga qushlarni kelib chiqishi, sistematikasi, tarqalishi, turli-tumanligi, ulardan oqilona foydalanish va ularni himoya qilishni chuqur o'rghanish, qushlar haqida hozirgi zamon ta'limotini berish, qushlarning biologik xilma-xillikni saqlashagi ahamiyati, fanning xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, tibbiyat muammolarini yechishdagi o'mi to'g'risida ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi magistr talabalarga qushlarning tuzilishi, fiziologiyasi, bioenergetika, migratsiyasini zamonaviy talqini, kenglikdagi oriyentatsiya, xududiy konservativizm, hatti-harakatlar kabi muammolarni hal etadi. Qushlarni ekosistemadagi o'rni, ornitologiyaning qiyosiy muammolariga, ornitofaunani inson tomonidan o'zgarishi, qushlar adaptatsiyasi (moslanuvchanligi) kabi muhim muammolarga alohida ahamiyat beradi. Kursni o'qitish davomida O'rta Osiyo ornitologiyasini milliy yutuqlaridan keng ko'lamda foydalilanadi va qishloq xo'jaligi, xalq xo'jaligidagi ahamiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatishdan iborat.

## II. Asosiy nazariv qism (m a'ruza mashg'ulotlari)

### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Ornitoligiya faniga kirish

Omitologiya fanining maqsad, vazifalari va o'rghanish usullari. Fanning biologiya fanlar tizimida tutgan o'rni. Boshqa fanlar bilan aloqasi.

#### 2-mavzu. Ornitoligiya fanining rivojlanish tarixi

Fanning rivojlanish tarixi. Rivojlanish davrlari. Xorij mamlakatlarida ornitologiyaning rivojlanishi. Ornitoligiyaning O'zbekistondagi rivojiga hissa

### **3-mavzu. Qushlar evolyutsiyasi**

Qushlarning kelib chiqishi haqidagi zamonaviy gipotezalar. Qushlarni ajdodi va evolyutsion faktorlar. Termoregulyatsiya va uchishda pat qoplamasining ahamiyati.

### **4-mavzu. Qushlar sistematikasi**

Zoologik sistematika prinsiplari. Sistematikada qo'llaniladigan asosiy prinsiplar: morfologik, bioximik, kariologik, parazitologik, etologik, bioakustik va boshqalar.

### **5-mavzu. Qushlar sinfiga tavsif**

Qushlar sinfiga tavsif. Ularni geografik tarqalishi. Turli biogeografik hududlarda ularni farqlovchi xususiyatlari. Markaziy Osiyo ornitofaunasiga tavsif: tashkillashuv tarixi, antropogen ta'sirlar, O'zbekiston ornitofaunasi misolida tog', tekislik landashftidagi qushlarning tarqalish dinamikasi. Antropogen landshaftga qushlarni moslashish muammosi.

### **6-mavzu. Qushlar fiziologiyasi asoslari**

Oziqlanish va ovqat hazm qilish, nafas olish va gaz almashinushi, qon aylanish, ayiruv tizimlari, suv-tuz balansini saqlash, qushlarning issiq iqlim sharoitiga moslashish yo'llari. Termoregulyatsiyaning fiziologik asoslari: tana harorati, ontogenezning boshlang'ich bosqichlaridagi poykilotermiya, gomoyotermiya, geterotermiya, anabioz. Erkin yashovchi qushlarda kundalik vaqt va energiya sarflanishi.

### **7-mavzu. Qushlarning migratsiyasi**

Migratsiyaning adaptiv belgilari, o'troq, ko'chib o'tish, mavsumiy uchib o'tish. Hududiy konservativm. Uchib o'tish, migrantsion holat, biologik ritmni kelib chiqishi haqida gipotezalar. Oriyentatsiya, kengliklar haqida gipoteza. Mavsumiy, kundalik uchib o'tish dinamikasiga ta'sir etuvchi faktorlar.

### **8-mavzu. Biotsenozda qushlarning ahamiyati**

Trofik aloqa va ozuqaviy ixtisoslashuv. Ozuqaga qarab mavsumiy oziqlanishning almashinushi. Hasharotxo'r qushlar va ularni hasharotlar sonini nazorat qilishdagi ahamiyati, ularni o'rganish usullari va entomofag qushlarning trofik ahamiyati.

### **9-mavzu. Ornitoxoriya haqida**

Yovvoyi va madaniy o'simliklarning urug'i, don va mevalarini qushlar tomonidan tarqalishi. Tog'li hududlarda daraxt va buta urug'larini tarqalishida qushlar ishtiroki. Paxta ekinzorlarida yovvoyi o't urug'larini qushlar tomonidan tarqalishi.

### **10-mavzu. Ornitologiyaning qiyosiy muammolari va uni yechish**

Ovlanadigan qushlardan oqilona foydalanish va himoya qilish vositalari. O'zbekiston hududidagi asosiy ovlanadigan qush turlari va ularning tarkibiy qismi. Ovchilik xo'jaligidagi boshqa resurslar orasidagi qushlarning roli. Ovlanish miqdori. O'zbekiston hududida qishlovchi va uchib o'tuvchi suv oldi qushlarining masshtabi. Ovlanadigan qushlar sonini nazorat qilish muammolari. Ommaviy migratsiyalovchi gidrofil qush turlari, ular uchraydigan respublika suv havzalarining ahamiyati. Ixtifag qushlar muammosi: baliqxo'r qushlar tarkibi. Ularning mavsumiy va hududiy tarqalishi. Zarar keltirishini kamaytirish usuli va profilaktikasi.

### **11-mavzu. Donxo'r qushlar: xilma-xilligi va soni**

Donxo'r qushlar: xilma-xilligi, soni, don mahsulotlariga yetkazadigan zarar masshtabi. Turli mamlakatlarda donxo'r qushlarga qarshi olib boriladigan kurash. O'zbekistonda donxo'r qushlarning zarar yetkazish masshtabi. Ekin hududlarida chumchuqsimonlar tomonidan yetkazilgan zarami ekolog-etologik usullar yordamida kamaytirish. Yirik shaharlardagi don omborlari va oziq-ovqat ishlab chiqarish muassasalaridagi qushlarning roli. Kaptarsimonlar sonini nazorat qilish usullari.

### **12-mavzu. Aviatsiyada ornitologiya muammolari**

Aviatsiyada ornitologiya muammolari. Qushlarni samolyotlarga to'qnashganda kelib chiqadigan muammolar. Mavsumiy va uchish trassalarida uchib yuruvchi qushlarni doimiy kuzatuvi. Aeroport uchish tizimlarida qushlar sonini nazorat qilish. Poliz ekinlari hududidagi qushlarning zarari: hosilni kamayishiga sabab bo'lувchi qushlar, mavsumiy va territorial hususiyatlari, uzumzor va bog'larda chug'urchuqsimonlarni yoppasiga yig'ilishi. Bioifloslanish: shahar daraxtzorlari va ishlab chiqarish obyektlarida mayna va qarg'asimonlarning ommaviy tunash joylari. Ifloslanishni baholash mashtabi. Qushlarni tungi yerlarda bioakustikani qo'llash.

### **13- mavzu. Qushlarni tibbiyotdagi ahamiyati**

Qushlarni tibbiyotdagi ahamiyati. Qushlar va virus kasalliklari.

Butundunyo sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari. Virus kasalliklari qo'zg'atuvchilari sirkulyatsiyasida qushlar migratsiyasining roli. Qushlarni ekto va endoparazitlari.

#### **14- mavzu. Noyob qush turlari**

Noyob qushlar to'g'risida umumiy ma'lumot. O'zbekiston Qizil kitobiga kirgan nodir va noyob qushlar. Ro'yxati. Sistematik holati.

#### **15- mavzu. Noyob qushlarni muhofaza qilish masalalari**

Muhofazaga olingan tabiiy hududlar. Muhofazaga olingan qush turlari. Noyob qushlarni muhofaza qilish masalalari. Qushlarni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik asoslari.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Amaliy mashg'ulotlar), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi  
(nomi)bo'yicha yoziladi)

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Ornitologiya fanining o'rghanish usullari
2. O'zbekistonda ornitologiya fanining rivojlanish tarixi
3. Qushlarning ajodlari va evolyutsion faktorlar
4. O'zbekiston ornitofaunasiga tavsiif
5. Qushlarning turli biogeografik hududlarda tarqalsh xususiyatlari
6. Qushlarning asosiy organlarining tuzilishi va fiziologiyasi
7. Qushlarning mavsumiy, kundalik uchib o'tish dinamikasiga ta'sir etuvchi faktorlar
8. Hasharotxo'r qushlarning hasharotlar sonini nazorat qilishdagi ahamiyati, ularni o'rghanish usullari
9. Qushlarni turli o'simliklar urug'ini tarqalishidagi ahamiyati
10. Ovlanadigan qushlar. Baliqxo'r qushlar zararini kamaytirish. Baliqchilik xo'jaligiga ekskursiya
11. Donxo'r qushlarni kuzatish
12. Qushlarni samolyotlar bilan to'qnashuvini kamaytirish va profilaktika usullari
13. Qushlarning ekto va endoparazitlari
14. O'zbekiston ornitofaunasidagi noyob qush turlarini o'rghanish
15. Noyob qush turlarini muhofaza qilish masalalari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Talaba avvalo bajariladigan amaliy mashg'ulot ishining nazariy va amaliy tomonini qisqacha izohlab beradi va yozma ravishda xulosalar qilinadi. Ushbu xulosalar o'qituvchi tomonidan og'zaki muloqot shaklida tekshiriladi.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ornitologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Ornitologyaning biologiya fanlar tizimida tutgan o'mi
3. O'zbekistonda ornitologik tadqiqotlar tarixi
4. Ornitologyaning O'zbekistondagi rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar
5. Qushlarning kelib chiqishi haqidagi zamonaviy gipotezalar
6. Qushlarning ajdodlari va evolyutsion faktorlar
7. Qushlar sistematikasi
8. O'zbekiston qushlari faunasi
9. Qushlar sinfi vakillarining xarakterli belgilari
10. Qushlarning geografik tarqalishi
11. Qushlarda uchishga xos fiziologik moslanishlar
12. Qushlarning tashqi va ichki tuzilishi
13. Migratsiyani yuzaga keltiruvchi omillar
14. Migratsiyaning adaptiv belgilari. Hududiy konservativm. Orientatsiya
15. Qushlarning amaliy ahamiyati
16. Qushlarda ozuqaviy ixtisoslashuv
17. Ornitoxoriya nima?
18. O'simliklar urug'larining tarqalishida qushlarning ahamiyati
19. Ovlanadigan qushlardan oqilona foydalanish
20. Qushlarning baliqchilik xo'jaliklariga keltiradigan zarari va uni kamaytirish choralar
21. Donxo'r qushlar zarari masshtabi. Ularga qarshi olib boriladigan kurash.
22. O'zbekistonda donxo'r qushlar zarari
23. Qushlarni samolyotlar bilan to'qnashuviga oid muammolar
24. Qushlar va bioakustika
25. Qushlar va tibbiyot
26. Qushlar va virus kasalliklari
27. Noyob qushlarni muhofaza qilish
28. Qushlar va "Qizil kitob"

29. O'zbekistonning noyob qushlari  
 30. Surxondaryoning noyo'b qushlari va ularni muhofaza qilish masalalari
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3

### V. Ta'lif natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

**Magistr talaba bilishi kerak:**

- Qushlarning ajdodlari va evolyutsion faktorlar, qushlar sinfining umumiyl tavsisi, qushlarning issiq iqlim sharoitiga moslashish yo'llari, hasharotxo'r qushlar va ularning hasharotlar sonini nazorat kilishdagi ahamiyati, ornitologiyaning qiyosiy muammolari va ularning yechimi, aviatsiyada ornitologiya muammolari, muhofazaga olingan qush turlari, ornitofauna, foydali va muammoli qushlar, noyob va muhofazaga muxtoj qushlarni muhofaza kilish bo'yicha qonunlar, O'zbekistondagi qo'riqxona va buyurtmaxonalar haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- ornitologiyaning amaliy muammolari, qushlar klassifikatsiyasi, turlitumanligi, ularning geografik tarqalishi, Markaziy Osiyo ornitofaunasining shakllanish tarixi, qushlarning tuzilishi, fiziologiyasi va bioenergetikasi, oziqlanishi va ovqat hazm kilish tizimi, nafas olish va gazlar almashinushi, qon aylanish tizimi, ayiruv va suv-tuz balansini saqlash xususiyatlari, migratsiyaning adaptiv belgilari, hududiy konservativizmni, daraxt va buta urug'larining tarqalishida qushlarning ishtiroki, ularning tibbiyotdagi ahamiyati, O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan nodir va noyob qushlarni, muhofazaga olingan tabiiy hududlarni, amaliy muammolarni yechishning zamonaviy yo'llari va usullari, qushlar muhofazasida xalqaro huquq asoslarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- qushlarning kelib chiqishini zamonaviy talqin qila olish, ov qushlaridan oqilona foydalanish va ularni himoya kilish, hasharotxo'r qushlar va ularning hasharotlar sonini nazorat kilishdagi ahamiyatini o'rganish usullaridan foydalana olish, ornitologik ma'lumotlarni amaliyatda qo'llay olish, qushlar zararini kamaytirish usullaridan foydalana olish va profilaktika choralarini ishlab chiqish, donxo'r qushlarning don mahsulotlariga yetkazadigan zararini hisoblash va ularga qarshi kurashish, mavsumiy va uchish trassalarida uchib o'tuvchi qushlarni doimiy kuzatish, qushlarni qishloq xo'jaligida, ovchilikda va

	baliqchilikda tutgan o'mini mustaqil o'rganish, biologik zararlar va boshqa muammolarni mustaqil yechimini topa olish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar;</li> <li>• Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar)</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlami qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo 'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> <li>•</li> </ul>
5	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olisli uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalar natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston respublikasi Qizil kitobi. II-tom. Toshkent. 2019. - 710 b.</li> <li>2. Богданов О.П. Редкие животные Узбекистана. Ташкент, 1992. -370 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>3. Ильин В.Д., Карташёв Н.Н., Шилов И.А. Общая орнитология. Изд. Высшая школа, М. 1982. – 464 с.</li> <li>4. Наумов Н.П., Карташёв Н.Н., Шилов И.А. Зоология позвоночных. Часть 2. Изд. Высшая школа, М. 1979. – 272 с.</li> <li>5. Чельцов-Бабутов А.М. Экология птиц. изд. -МГУ. 1982. 170 с.</li> <li>6. Михеев А.В. Перелёты птиц. Изд. Лесная промышленность. - М. 1981. 230 с.</li> <li>7. Винокуров А.А. Редкие и исчезающие животные, птицы. Высшая школа. - М. 1992. 350 с.</li> <li>8. Птицы Узбекистана, Том 1, Академия Наук Республики Узбекистан, институт зоологии и паразитологии, Ташкент,</li> </ol>

	<p>Издательство "ФАН" 1987 г.</p> <p>9. Птицы Узбекистана, Том 2, Академия Наук Республики Узбекистан, институт зоологии и паразитологии, Ташкент, Издательство "ФАН" 1990 г.</p> <p>10.Птицы Узбекистана, Том 3, Академия Наук Республики Узбекистан, институт зоологии и паразитологии, Ташкент, Издательство "ФАН" 1987 г.</p> <p>11.Птицы Узбекистана. Фотоальбом. Ташкент. 2012. -100 с.</p> <p>12.Питерсон Р. Птицы, перевод с английского. Изд. Мир. - М. 1973. 150 с.</p>
	<p style="text-align: center;"><b>Internet saytlari</b></p> <p>13.Oquv uslubiy ta'minot – O'UT fakultet kutubxonasi fondida</p> <p>14.<a href="http://www.ziyo.net.uz">www.ziyo.net.uz</a></p> <p>15.<a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></p> <p>16.<a href="http://uzspb.uz">http://uzspb.uz</a></p> <p>17.<a href="http://zoohistory.ru">http://zoohistory.ru</a></p> <p>18.<a href="http://www.ebio.ru">http://www.ebio.ru</a></p> <p>19.<a href="http://www.seaworld.org/animal">http://www.seaworld.org/animal</a></p> <p>20.<a href="http://www.zin.ru">http://www.zin.ru</a></p>
7	<p><b>O'zbekiston faunasi fanining o'quv dasturi Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b></p> <p>O'quv dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2024 yil “<u>26</u>”  <u>06</u> dagi “<u>11</u>” -sonli qarori bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p><b>Fan / modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>B.A.Raxmatullayev  TerDU “Zoologiya” kafedrasи mudiri,      biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p> <p>A.S.Bekmurodov  TerDU “Zoologiya” kafedrasи dotsenti,      biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>X. S.Eshova – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Zoologiya kafedrasи professori, biologiya fanlari doktori</p> <p>A.U.Mamashukurov – Samarqand davlat universiteti “Zoologiya” kafedrasи dotsenti, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>